

TA'LIM TIZIMIDA AUTODESTUKTIV XULQ-ATVORGA EGA BO'LGAN O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHNING PSIXOLOGIK MASALALARI

Meliqulova Shahnoza Normurodovna

Toshkent shahar Yunusobod tumani 250-sonli

umumta'lim maktab amaliyotchi psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ta'lim tizimida autodestruktiv xulq-atvoriga ega bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashning psixologik jihatlari, ushbu holatning yuzaga kelish sabablari hamda profilaktik va korreksion ishlarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, maktab psixologi, pedagoglar va ota-onalarning hamkorlikdagi faoliyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: autodestruktiv xulq-atvor, o'quvchi, psixologik yordam, emotsional muammolar, profilaktika, maktab psixologi, stress, xavotir, shaxs rivojlanishi, psixologik qo'llab-quvvatlash.

KIRISH

Ta'lim tizimida o'quvchilarning ruhiy salomatligini asrash va qo'llab-quvvatlash muhim vazifalardan biridir. So'nggi yillarda ayrim o'quvchilarda o'ziga zarar yetkazuvchi yoki o'z manfaatlariga zid bo'lgan xulq-atvor shakllarining uchrashi mutaxassislar e'tiborini tortmoqda. Bunday holatlar autodestruktiv xulq-atvor deb yuritiladi va ular o'quvchining ruhiy holati hamda ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Autodestruktiv xulq-atvor shaxsning o'z salomatligi, rivojlanishi yoki farovonligiga zarar yetkazuvchi xatti-harakatlari bilan tavsiflanadi. Bunday xulq-atvorning yuzaga kelishida turli psixologik, oilaviy va ijtimoiy omillar muhim rol o'ynaydi. O'quvchilarda kuchli stress, emotsional zo'riqish, o'zini yolg'iz his qilish, oilaviy nizolar yoki tengdoshlar bilan munosabatlardagi qiyinchiliklar ushbu holatning rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Psixologik nuqtai nazardan autodestruktiv xulq-atvor ko'pincha ichki ruhiy ziddiyatlar va salbiy hissiyotlarni boshqarishdagi qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'ladi. O'quvchi o'z muammolarini hal etishning sog'lom usullarini bilmaganda yoki yetarli ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni his qilmaganda, salbiy xatti-harakatlarga moyillik kuchayishi mumkin. Ta'lim muassasalarida bunday holatlarni erta aniqlash muhim ahamiyatga ega. O'quvchining kayfiyatidagi keskin o'zgarishlar, darslarga qiziqishning pasayishi, ijtimoiy faollikning kamayishi yoki doimiy tushkunlik belgilari mutaxassislar tomonidan e'tibor bilan kuzatilishi lozim. Erta aniqlash keyingi psixologik yordamning samaradorligini oshiradi.

Maktab psixologining faoliyati bu jarayonda alohida o‘rin tutadi. Psixolog o‘quvchining hissiy holatini o‘rganadi, individual suhbatlar o‘tkazadi va uning ichki kechinmalarini tushunishga yordam beradi. Shuningdek, emotsional barqarorlikni rivojlantirish, stressni boshqarish va ijobiy muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan treninglar tashkil etiladi. Pedagoglar ham autodestruktiv xulq-atvorga moyilligi bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlashda muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchi o‘quvchiga nisbatan hurmat va e‘tibor bilan munosabatda bo‘lishi, uni kamsitmasligi va qo‘llab-quvvatlashi zarur. Sog‘lom psixologik muhit o‘quvchining o‘zini xavfsiz his qilishiga yordam beradi.

Ota-onalar bilan hamkorlik ham profilaktik ishlarning muhim qismidir. Oilada farzand bilan ochiq muloqot o‘rnatish, uning hissiy ehtiyojlariga e‘tibor qaratish va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish autodestruktiv xulq-atvorning oldini olishga xizmat qiladi. Ota-onalar farzandining ruhiy holatidagi o‘zgarishlarga befarq bo‘lmazliklari kerak. Shuningdek, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, sport, san‘at va ijodiy faoliyatlarga jalb qilish ham ularning ruhiy salomatligini mustahkamlashga yordam beradi. Bunday faoliyatlar o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va salbiy hissiyotlarni sog‘lom yo‘llar bilan ifoda etish imkonini yaratadi.

Autodestruktiv xulq-atvorni oldini olishning eng samarali usullari bu xatti-harakatlar oqibatlarini o‘smirlarga to‘liq tushuntirish, anglatishga qaratilgan. Boisi, shaxs biror faoliyatda samaraga erishish uchun albatta, u faoliyat haqida yetarlicha ma‘lumotga ega bo‘lishi, tahlil qilishi va mazmunini chuqurroq anglashi muhimdir. Shunda uning o‘zi ichki motivlar asosida natija uchun bardavom harakatda bo‘ladi. Agar shaxs o‘zi uchun zararli xatti-harakatlarga qarshi anglangan tarzda, o‘zi kurashmasa, ko‘plab usullar o‘zining samarasini yo‘qotishi mumkin. Bu borada Qur‘oni Karimning Ra‘d surasi, 11-oyatda “Albatta, to bir qavm o‘zlarini o‘zgartirmaganlaricha, Alloh ularning holini o‘zgartirmas” deya bayon etilgan.

Hozirga qadar zamonaviy psixologik tadqiqotlarda o‘smirlardagi autodestruktiv xulq-atvorning profilaktikasi ahamiyati va izchil metodlari bo‘yicha ko‘plab nazariyalar oldinga surilgan hamda bu borada ko‘plab izlanishlar olib borilgan. Jumladan, G‘.A. Berulavanning izlanishlarini natijasiga ko‘ra, jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichidagi psixologiyani rivojlantirishda gumanistik yo‘nalishlar shaxsni samarali rivojlantirishga qaratilgan ustuvor yo‘nalishga ko‘rsatilishi kerak. Shuningdek, O.V. Xuxlayeva ham bugungi kunda o‘smirlarda autodestruktiv harakatning tarqalishi ko‘payganda, profilaktik ishlar alohida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta‘kidlab o‘tgan.

Autodestruktiv xulqni o‘rganish uchun bir qator psixologik-diaagnostika metodlari mavjud. Bu metodlar autodestruktiv xulqning sabablarini aniqlash, uni

tadqiq etish qiyinchiliklarini baholash va muammolarni hal etishga yordam berish maqsadida qo'llaniladi.

Autodestruktiv xulq-atvorni o'rganish va tashxislashda psixologik diagnostikaning turli metodlaridan foydalaniladi. Ushbu metodlar shaxsning hissiy holati, fikrlash jarayonlari, xulq-atvor xususiyatlari hamda ijtimoiy munosabatlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Eng ko'p qo'llaniladigan usullardan biri psixologik suhbat hisoblanadi. Suhbat davomida sinaluvchining his-tuyg'ulari, kechinmalari, qarashlari va xulq-atvoriga oid ma'lumotlar yig'iladi. Bundan tashqari, maxsus ishlab chiqilgan psixologik testlar va anketalar yordamida depressiya, xavotir va autodestruktiv xulqqa moyillik darajasi aniqlanadi. Kuzatish metodi esa shaxsning tabiiy sharoitdagi xatti-harakatlari va boshqalar bilan munosabatlarini baholash imkonini beradi. Shuningdek, shaxsiy xususiyatlarni aniqlashga qaratilgan psixologik profillash hamda ijtimoiy munosabatlarni tahlil qilish usullari autodestruktiv xulqning sabablarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'smirlarda o'z-o'ziga zarar yetkazishga moyillikni aniqlashda suhbat metodi alohida o'rin tutadi. Mazkur metodni samarali tashkil etish uchun avvalo ishonchli va qulay psixologik muhit yaratish talab etiladi. Suhbat samimiy muloqot asosida boshlanib, uning maqsadi o'smiringa tushunarli tarzda izohlanadi. Jarayon davomida mutaxassis bolaning his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari va muammolarini aniqlashga qaratilgan savollar beradi hamda uning javoblarini diqqat bilan tinglaydi.

Suhbat jarayonida refleksiya usulidan foydalanish, ya'ni o'smirning fikr va hislarini qayta ifodalash, uning ichki kechinmalarini chuqurroq anglashga yordam beradi. Shuningdek, autodestruktiv xatti-harakatlarning sabablarini aniqlash va salbiy xulq-atvorni ijobiy yo'nalishga o'zgartirishga xizmat qiluvchi muqobil strategiyalar ishlab chiqiladi. Suhbat yakunida olingan natijalar umumlashtirilib, keyingi psixologik yordam bosqichlari rejalashtiriladi.

Autodestruktiv xulqni tadqiq etishda kuzatish metodi ham keng qo'llaniladi. Ushbu metod shaxsning tabiiy muhitdagi xulq-atvori va emotsional reaksiyalarini bevosita baholash imkonini beradi. Kuzatish jarayoni maqsadni belgilash, reja tuzish, ma'lumotlarni qayd etish, natijalarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Psixologiya fanining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan Lev Vigotskiy kuzatish metodining ahamiyatini alohida ta'kidlab, shaxs rivojlanishini o'rganishda ijtimoiy muhitning roliga katta e'tibor qaratgan. Uning fikricha, inson xulq-atvorini tushunish uchun shaxs va muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sirni kuzatish zarur. Shuningdek, William James ham kuzatishni psixologik tadqiqotlarning asosiy metodlaridan biri sifatida baholagan va insonlar o'rtasidagi individual farqlarni anglashda muhim vosita deb hisoblagan.

O‘smirlarda autodestruktiv xulq-atvorning oldini olishda umumta’lim maktablari muhim profilaktik maydon hisoblanadi. Chunki o‘smirlarning asosiy qismi aynan ta’lim muassasalarida faoliyat yuritadi va maktab psixologi ularni muntazam kuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Psixolog, o‘qituvchilar va ota-onalar hamkorligi orqali xavf guruhiga mansub o‘quvchilarni erta aniqlash, ularga zarur psixologik yordam ko‘rsatish va profilaktik choralarni amalga oshirish mumkin.

Profilaktika jarayonida shaxsning ijtimoiy moslashuvi, ichki muvozanati, ma’naviy rivojlanishi va o‘zini anglash darajasiga alohida e’tibor qaratiladi. Ijtimoiy salomatlikning muhim ko‘rsatkichlari sifatida mas’uliyatlilik, empatiya, altruizm, ijtimoiy faollik va demokratik munosabatlar namoyon bo‘ladi.

Psixolog Alice Miller sog‘lom o‘zini anglashni insonning o‘z his-tuyg‘ulari va ehtiyojlarini qabul qila olishi bilan bog‘laydi. Uning fikricha, inson o‘z ichki kechinmalarini anglab, ularni erkin ifoda eta olganida psixologik jihatdan barqaror va sog‘lom rivojlanadi. Bunday holat shaxsda o‘ziga hurmat, ichki tayanch va hayotiy qiyinchiliklarga bardoshlilikni shakllantiradi.

Umuman olganda, autodestruktiv xulq-atvorni o‘rganish, tashxislash va profilaktika qilish kompleks yondashuvni talab etadi. Suhbat, kuzatish, psixologik testlar va ijtimoiy muhitni tahlil qilish kabi metodlardan birgalikda foydalanish muammoni chuqurroq anglash va samarali yordam ko‘rsatish imkonini beradi. O‘smirga o‘z vaqtida va yetarli darajada psixologik yordam ko‘rsatish uchun ushbu yoshning xususiyatlarini, rivojlanish normalarini hamda bu davrda inson hal qilishi kerak bo‘lgan vazifalarni chuqur bilish kerak. Bu bosqichda ota-onalar va o‘qituvchilardan tashqari o‘smir bilan ishlashda psixolog ham ishtirok etadi, chunki u yuqorida ta’kidlangan bilimlarning egasi hisoblanadi. O‘smirlar bilan ishlashda psixologning vazifasi, V.Oaklanderning so‘zlariga ko‘ra, ularni "ichki dunyosiga deraza va eshiklarini ochish" vositalari bilan ta'minlash, ularga ushbu vositalar bilan birgalikda ishlash uchun his-tuyg'ularini ifoda etishda yordam berish hisoblanadi. Shu tarzda o‘smir o‘z his-tuyg'ularini anglashi va "o'zlashtirishi", tugallanmagan vaziyatlarni yakunlashi hamda tanlash imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin. V.Oaklander o‘smir bilan muvaffaqiyatli psixologik ish olib borish uchun hissiy o‘shish jarayoniga xalaqit beradigan xatti-harakatlarning yashirin motivlarini yoki bloklangan his-tuyg'ularni aniqlashning o'zi kifoya va psixologning o'zi, birinchi navbatda, o'smirni tushunadigan shaxsdir deb hisoblaydi.

Psixologni o‘smirning yordamchisi sifatida kiritilishi orqali chuqur tashxis qo‘yiladi, ya’ni, “Nega bunday his-tuyg'ular va istaklar paydo bo‘ldi?” savoliga javob izlanadi. Keyinchalik, muammoni chuqur o‘rganish, shu jumladan uning sabablari bilan ishlash va passiv azob-uqubatlarni faol xatti-harakatlarga aylantirishning javob mexanizmidan foydalangan holda profilaktik harakatlar orqali uni yo‘q qilish amalga

oshiriladi. Keyin og'riqni yengish, muammoni hal qilish va integratsiyalashuv, shu bilan birga ijobiy hamda qimmatli hayot tajribasiga erishish mumkin bo'ladi.

K. Faupel o'smirlar bilan ishlashda ularning rivojlanish jarayonlari o'zo'zidan emas, balki yaqinlari va atrof-muhit talablari ta'sirida sodir bo'lishini aniq tushunish kerakligini eslatib o'tadi. Shuning uchun o'smirdan na oilada, na maktabda o'rgatilgan "kattalik" mas'uliyati, ijtimoiy muvofiqlik xulqini talab qilish befoydadir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, autodestruktiv xulq-atvorga ega bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash kompleks va ehtiyotkor yondashuvni talab qiladi. Maktab psixologi, pedagoglar va ota-onalarning hamkorligi asosida olib borilgan profilaktik va qo'llab-quvvatlovchi ishlar o'quvchilarning ruhiy salomatligini mustahkamlash hamda ularning barkamol shaxs sifatida rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Elkonin D.B. Rivojlanish psixologiyasi: O'quv qo'llanma. - M.: 2001 – 624 b.
2. Ibodullayev Z.R. Tibbiyot psixologiyasi. Darslik. – T.: 2008, 24-b.
3. Jeym, Uilyam. Psixologiya tamoyillari. New York: Henry Holt and Company, 1890. 162-b.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Tavsiri hilol, 3 juz, – T.: „Sharq“ NMAK, 2009. 223-bet
5. Берулава Г. Методология современной психологии, Монография. – Москва: 2009. С.112.
6. Выготский, Л. С. Педагогическая психология / Л. С. Выготский - М.: Педагогика, 1991. - 23 с.
7. Выготский, Л.С. История культурного развития нормального и ненормального ребенка / Л.С. Выготский, // Психология личности. Ред. Ю.Б. Гиппернейтер, А.А. Пузырей. М.: Издательство Моск. ун-та, 1992. - С.161165.
8. Дольто, Ф. На стороне подростка [Текст] / Ф. Дольто. - Екатеринбург: V - Фактория, 2004. -368 с
9. Маслоу, А. Мотивация и личность [Текст] / А. Маслоу. - СПб.: Евразия, 1999. - 478 с.
10. Миллер, А Драма одаренного ребенка и поиск собственного Я/А. Миллер. - Москва: Академический Проект, 2001.-144 с